



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

Bugungi kunda ham jadidlar merosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning ilg'or g'oyalari yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlarni global dunyoda o'z o'rnini topishga yo'naltirishda jadidlar tajribasi dolzarbdir.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar turli xil axborot oqimlari ta'sirida qolmoqda. Bunday sharoitda ularning ma'naviyatini mustahkamlash, to'g'ri yo'lga yo'naltirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtada jadidlar merosi biz uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning ilmga intilish, milliy qadriyatlarga hurmat va zamonaviylikka ochiqlik kabi g'oyalari bugungi yoshlar uchun ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, Jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ular yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, bilimli, vatanparvar va milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan shaxs sifatida voyaga yetkazishda asosiy ma'naviy-ma'rifiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdulla Avloniy. Jadidlar to'plami kitobi "Yoshlar nashriyoti uyi, 2022 84-85-betlar.
2. Islom X. Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi //Pedagog respublika ilmiy jurnali. – 2023. – T. 15.
3. Hasilmurodov I. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. – 2022.
4. Xamitolim o'g'li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati". Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. – 2022.
5. Xamitolim o'g'li X. I. O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati //Jamiyat va innovatsiyalar. – 2021.
6. Xamitolim o'g'li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili". "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar" Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil.
7. Islam H. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – C. 11.

O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI TUSHUNCHASINING MAZMUN MOHIYATI

Primov Sherzod Kuvandikovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari haqida fikrlar keltirilgan. Pedagogika fanlarining mazmuni pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarining kommunikativ kompetensiyasining insonparvarlik asoslarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi, o'quvchiga qaratilganligi va o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabati, ma'naviy-axloqiy jihati, insonparvarlik qadriyatlari almashinuvi jarayoni ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentlik, kommunikativ ko'nikmalar, kasbiy qiziqishlar, motivatsiya, kasbiy muloqot.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar u bilan muloqotga kirishishning samarali mexanizmlarini tatbiq etishning me'yoriy asoslari yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish"[1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu ijtimoiy jarayonlarda, kasbiy muloqot saviyasini oshirishga sharoitlar yaratadi.

Ta'limda o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi – bu uning insonparvarlikka yo'naltirishining rivoji. Ushbu kon–tekstdagi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan, o'quvchiga qaratilgan ta'lim sifatida qo'rib chiqiladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatining ma'naviy-axloqiy jihati va insonparvarlik qadriyatlarning almashinuvi jarayoni pedagogik faoliyatda birinchi darajaga chiqadi[2].

Bularning barchasi jadal va samarali muloqot jarayonida amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchi uchun muloqot faoliyat maqsadi, mazmuni va usuli sifatida oldinga chiqadi, shunga ko'ra, pedagogda kommu–nikativ qobiliyatlar, malaka, ko'nikma va "kommunikativ kompetentlik" umumiy tushunchasida asoslangan barcha xususiyatlarni rivojlantirish zarurati yuzaga keladi.

"Kommunikativ kompetentlik" tushunchasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda yangilik emas. Mazkur hodisa psixologiya fanida ham faol o'rganiladi. Shifokorlarning kommunikativ kompetentligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari mavjud (N.V.Yakovleva, L.A.Svetkova va boshqalar).

Biroq mazkur tushunchaning aynan o'qituvchilik kasbiy-mutaxassisligiga nisbatan o'rganishlar bo'yicha tadqiq qilingan tadqiqot ishlar deyarli mavjud emas. Pedagogik faoliyat mohiyatini juda ko'p aspektli hamda ko'p tomonli mazmun-mohiyatga ega. Uning asosiy yo'nalishlarini – bu pedagogik faoliyatning individual metodi, kommunikativ tayyorligi, o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetentligi, pedagogik madaniyat, kommunikativ madaniyat, kommu–nikativ o'zaro ta'sir kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin[3].

Tadqiqot yo'nalishlari ro'yxatini davom ettirish mumkin. Biroq barcha tadqiqot ishlarini birlashtiruvchi, qandaydir umumiy tushuncha mavjud – bu o'qituvchining faoliyatida muloqot, kommunikatsiya asosiy o'rin tutishi faktining so'zsiz qabul qilinishi. Bundan tashqari, qator tadqiqotlarda pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli ish yuritishni ta'minlovchi o'qituvchining kommu–nikativ qobiliyat va malakalari ko'rib chiqilgan.

O'qituvchining kommunikativ qobiliyatlari turli tushunchalar bilan: "pedagogik mahorat", "malakaviy tavsif", pedagogik ta'lim nazariyasida o'qituvchiga kasbiy-professional asoslangan talablar turli tushunchalar bilan ifodalangan: "pedagogik mahorat", "shaxsning professiogrammasi", "professional tayyorlik", "kasbiy-professional kompetentlik" bilan ifodalangan. Umuman olganda, yuqorida sanab o'tilgan, bir hodisani tavsiflovchi pedagogik toifalar alohida mazmuniy jihatlariga ega va turli kontekstlarda qo'llaniladi.

Pedagogik mahorat, eng avvalo, o'qituvchining faoliyati tuzilishida kommunikativ komponentlarning mavjudligi pedagog faoliyatida ularning nisbati va pedagogik qobiliyat darajasining belgilanishi bilan ta'minlanadi.

O'qituvchi faoliyatining tavsifnomasi bilan bog'liq ayrim tushunchalar yanada chuqur va har tomonlama ko'rib chiqishni talab etadi. Bunda "tayyorlik" va "kompetentlik" tushunchalari o'zaro yaqin tushunchalardir, biroq ularning ichki imkoniyati va amalga joriy etish aynan bir xil tushuncha bo'lmaganidek, ular ham bir xil tushuncha emas.

Agar tayyorlik o'qituvchiga o'z hamkasblari jamiyatiga kirish hamda kasbiy-professional munosabatlarini rivojlantirish imkon beruvchi sharoitlar holatining qandaydir tavsifi bo'lsa, ichki va tashqi jihatdan obyektlashgan kompetentlik esa faqat haqiqiy faoliyatda aniqlana oladi.

Izohli lug'atlarda inson kompetentligi "qaysi bir sohaga oid yetarli darajada bilimga ega shaxs" sifatida belgilanadi. Shunga ko'ra, kompetentlik insonning qaysidir faoliyat sohasida bilimlari, malaka va ko'nikmalari yig'indisi sifatida belgilanishi mumkin. Kommunikativ kompetentlik esa insonga samarali muloqot qilish imkonini beruvchi qaysidir faoliyat sohasida bilimlari, malaka va ko'nikmalari yig'indisidir.

"Kommunikativ kompetentlik" tushunchasi bilan yaqin aloqador bo'lgan – "shaxsning kommunikativ yadrosi" tushunchasi mavjud. "Kommunikativ yadro" tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan va ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy psixolog A.A.Bodalev tomonidan birinchi marta qo'llanildi.

Adabiyotlarda mazkur tushunchani faol qo'llanilganligini kuzatilmagan. Shu bilan birga, tushuncha mazmuni sermahsul va uni chuqur o'rganishga arziydi. Shaxsning kommunikativ yadrosini "individda to'g'ridan-to'g'ri yoki qandaydir ma'lum texnik vositalar orqali aloqaga kirishishga to'g'ri keladigan turli odamlar va jamiyatlar o'rtasida namoyon bo'ladigan birlik, munosabat va xulq-atvor" sifatida belgilaydi [4; 114-b].

Shaxsning kommunikativ yadrosi psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqilishi har bir insonda muloqotni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi asos mavjud. Bunday asos har qanday katta yoshli insonlarda ham va bolalar shaxsida ham mavjud bo'lib, kommunikativ yadrosiga shaxsiy xususiyat va sifatlar kirishi mumkin. Aynan ular oxir-oqibat, muloqot metodi va yo'nalishini belgilaydi.

Kommunikativ yadro dinamik hosila bo'lib hisoblanadi. Hayoti mobaynida, turli sabablarga ko'ra, u o'zgarishlarga uchraydi. Sabablardan biri yosh va hayotiy orttirilgan tajribalarga bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bunda ko'p jihatlar har bir shaxs rivojida sodir bo'luvchi haqiqiy kommunikativ vaziyatga bog'liq bo'ladi. Kommunikativ yadroga kiruvchi xususiyatlar o'zgarishi kommunikativ kompetentlikka maxsus o'qitish va rivojlanishi munosabati bilan sodir bo'lishi mumkin.

Shaxsning kommunikativ yadrosi hayotga, turli aloqalarning rivojlanishiga, pozitsiyalarni belgilash va inson kasbiy-professional faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. "Inson-inson" tizimida barcha kasbiy-professional sohalarida, ayniqsa, o'qituvchilik sohasida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kasbiy-mutaxassislikning noyobligi shundaki, bu yerda shaxsiy tafsilotlar kasbiy ahamiyatli bo'lib hisoblanadi. Kasbiy ahamiyatlilik jihatidan o'qituvchilik kasbining tavsifi bolalarga insonparvarlik munosabatini anglatadi, bunda pedagog shaxsining kommunikativ yadrosiga insonparvarlik, empatiya, bag'rikenglik va boshqalarni kiritish haqida xulosa qilish mumkin. Shaxsning kommunikativ yadrosi kasbiy-professional o'qituvchi faoliyatning jarayoni va natijalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning rivojlanishi va uning kommunikativ yadrosi kasbiy-professional faoliyat jarayonida va uning ta'sirida sodir bo'ladi.

Kasb egallashda to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Agar talabada kommunikativ yadro shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi, kasbiy-professional muhim bo'lgan bilimlarni egallash darajasi yetarli darajada yuqori bo'lsa, unda malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni ancha tez sodir bo'ladi, natijada, kasbiy-mutaxassislik mahorati, professiona-lizm, kompetentlik mavjudligi yoki uning yo'qligini belgilaydi.

Shu tariqa, shaxs kommunikativ yadrosining kommunikativ kompetentlikka ta'siri o'zaro ta'sir sifatida tushuniladi. Bir tomondan, shaxsning kommunikativ yadrosi kommunikativ kompetentlik rivojlanish darajasini, boshqa tomondan, kommunikativ yadro tarkibiga kiruvchi shaxsiy xususiyatlarni o'zgartirishga qodir bo'lgan kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus tashkil etilgan o'qishni tushunish mumkin.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasini "voqelik bilan munosabatda (faoliyatga, o'z-o'ziga, boshqa odamlarga) subyektiv munosabatlarning individual tuzilishi bilan bog'liq psixik holatlarning adekvat aks etishi va boshqa odamning shaxsiy xususiyati, uning xulq-atvorining to'g'ri bahosi, ularning asosida idrok etilayotgan shaxsning xususiyatlarini bashorotlash imkoniyatlarini ta'minlaydigan shakllanayotgan faoliyat va muloqotni butunlay shaxsiy hosila" sifatida ham tushunadilar.

Natijada kommunikativ kompetentlikni insonlar munosabatining barcha tizimlarini boshqaruvchi tabiiy va ijtimoiy olam, shuningdek, o'z-o'ziga har ikki olam uyg'unligi sifatida ma'naviy-psixologik toifa sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Biroq shaxsiy xususiyatlar tavsifnomasi komponenti pedagogik qobiliyatlar, shaxsiy yo'nalganligi, kasbiy-mutaxassislikka motivatsion-maqсадli munosabatlar va shaxsiy xususiyatlar haqidagi masalani ko'rib chiqishda turli xil ta'riflar berilgan va tushunilgan ko'plab mualliflarning turli fikrlari mavjud.

Sanab o'tilgan o'qituvchining kompetentligi haqidagi turli nuqtai nazarlardan tadqiqot ishimizda foydalandik. Biroq tadqiqotchilar nuqtai nazarining muvofiq kelmasligi asosan, pedagog uchun kasbiy ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar tanlovida, ularni asoslashda va ularning tavsiflarida kuzatiladi.

Kasbiy-professional kompetentlik tuzilishida ahamiyatga molik bo'lgan kommunikativ kompetentlik o'zini alohida qobiliyat sifatida namoyon etadi va alohida sharoitlarda boshqa odamlar o'zaro ta'sir ko'rsatadi.

“Kommunikativ kompetentlik” tushunchasi – kompleks tushuncha sababli u pedagogik qobiliyatlarga ham, o‘qituvchining pedagogika va psixologiya sohasidan xabardorligiga ham, shaxsiy xususiyatlar majmuasiga ham, boshqa qobiliyatlar bilan ifodalanmaydi yoki pedagog imkoniyatlari haqidagi bunday ta’riflar bir tomonlama bo‘lib hisoblanadi.

Kompetentlikni ta’riflashda foydalanilgan variantlar bilan yangilarini izlash bizga o‘qituvchining kommunikativ kompetentligining ta’rifini ifodalashda o‘qituvchining qadriyatli yo‘nalganligi, bilimi, amaliy ko‘nikma, malakalari va pedagogik muloqot jarayonida namoyon bo‘ladigan haqiqiy xulq-atvori o‘rtasida muvofiqlik darajasini belgilashga imkon berdi. Shu sababli kommunikativ kompetentlik tuzilishida integrativ shaxsiy hosila sifatida kamida ikki jihatini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi jihat kommunikativ kompetentlikning bevosita muloqot jarayonida, insonning kommunikativ xulq-atvorida namoyon bo‘lishida aniqlanadi. U ikki darajaga ega bo‘ladi: bevosita kommunika-tsiya (muloqot malakalari va ko‘nikmalari) va muloqot qonuniyati haqidagi bilimlar, o‘zi va bevosita muloqotdagi boshqalar haqidagi kommunikativ xususiyatlar. Ikkinchi jihatiga mazkur subyektning umumiy kommunikativ qadriyatlari, yo‘nalganlik va motivatsiyaning o‘ziga xosligi, uning muloqotga ehtiyoji kiradi.

Kommunikativ kompetentlikning tuzilmaviy komponentlari o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqador komponentlar, ular har qanday faol subyektning motivatsiyasi va xulq-atvori bilan bog‘liq. Bunda asosiy yetakchi o‘rinni egallaydi, nafaqat u yoki bu mo-tivlar mavjudligini oldindan belgilovchi, balki pedagogning bolalar bilan bevosita muloqot jarayonida o‘z shaxsiy harakatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ahamiyatli kommunikativ bilimlar, kommunikativ qadriyatlar va yo‘nalganlik ehtiyoji yuzaga kelishini rag‘batlantiradi.

Shu sababli qadriyatli yo‘nalganlik va kasbiy-mutaxassisikning shaxsiy mazmuni pedagogik faoliyatning, uning insonparvarlik, demokratik yoki avtoritar-tavsifini belgilovchi individual metodi shakllanishi uchun prinsipial ahamiyat kasb etadi[5]. Pedagogning kasbiy-professional faoliyati ta’limning insonparvarlik kon-sepsiyasi doirasida muloqot sifatida qaraladi. U (muloqot) bolaning rivojlanishiga, uning o‘zini o‘zi rivojlantirishiga sharoitlar yaratishga yo‘naltiriladi. Bu bizga pedagogik faoliyatning samaraliligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi va ko‘pincha o‘qituvchida qadriyatli yo‘nalganlik shakllanish darajasi bilan belgilanadi. Psixologlar mazkur darajani kasbiy-professional faoliyati va uning ahamiyati bo‘yicha shaxsning differentsiatsiya usuli sifatida belgilaydilar.

Pedagogning kasbiy-professional ahamiyatga molik bo‘lgan kommunikativ sifatleri ko‘p o‘rganilgan va buning natijasida muammolari ko‘p bo‘lmagan masala bo‘lib ko‘rinadi. O‘qituvchilik kasbining bunday sifatlariga tadqiqotchilar turli shaxsiy xususiyatlarni kiritadilar.

Ko‘pincha shaxsiy kasbiy zaruriy xususiyatlar orasida pedagogik xususiyatlarni shaxsiy, didaktik, tashkiliy-kommunikativ kabi uchta guruhga bo‘ladilar. Kasbiy-professional muhim xususiyatlarga ko‘plab yondashuvlarda o‘ziga xos xususiyat (jumladan, shaxsiy) sifatida pedagogik qobiliyatlar ko‘rsatilgan. Pedagogik adabiyotlarda shaxsiy xususiyatlar ro‘yxati ham juda turli tarzda berilgan.

O‘z faoliyatida muvaffaqiyatli pedagog ega bo‘lishi shart bo‘lgan yagona va takrorlanmas xususiyatlar jamlanmasini topish qiyin. Shaxsiy rag‘batlantirish mexanizmi mavjud bo‘lmagan bir shaxsiy xususiyatni boshqasi bilan almashtira oladi. Shu tariqa, pedagog uchun xos bo‘lishi shart bo‘lgan xususiyatlarni ko‘rsatishning imkoni bo‘lmasa ham, pedagogik muloqot tavsifi va pedagogik muloqot xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq (nazorat qiluvchi) xususiyatlar haqida fikr yuritish mumkin.

O‘qituvchining uning o‘quvchilar bilan samarali va sarmahsul muloqotiga yordam beruvchi shunday kommunikativ ahamiyatli xususiyatlari alohida qiziqish uyg‘otadi. Muloqotning samaraliligi va sarmahsulligi haqida fikr yuritib, muloqot nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchilar uchun ham shunday ahamiyatga molik bo‘lishiga ishonamiz, ya’ni bunday muloqot manipulyatsiyani istisno qilib, o‘quvchilar rivojlanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

“O‘qituvchi - o‘quvchi” tizimida muloqot, odatiy hayotdagi odamlar orasidagi shunchaki o‘zaro ta’sir aloqalarini emas, balki ancha chuqur funksiyani bajaradi. Mazkur funksiya pedagogik muloqotda amalga oshadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili bizga pedagogik muloqotning qator xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Ya’ni, pedagogning bolalarga qadriyatli munosabati, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaromunosabatining dinamik pozitsiyasi, o‘quvchilar ishonchini qozonish, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan pedagogik taktikaga, ma’naviy-axloqiy me’yorlar va boshqalarga amal qilishi lozim. Pedagogik muloqotning barcha xususiyatlari pedagogik fikrlar rivojlanishining zamonaviy bosqichida, eng avvalo, u (pedagogik muloqot) insonparvarlikka asoslanishi shart ekanligidan guvohlik beradi. O‘qituvchi o‘quvchi bilan muloqotining insonparvarlashtirish g‘oyasining metodologik tomoni bir qator pozitsiyalarga tayanadi. Har bir o‘quvchining takrorlanmasligi, noyoblighi va qadr-qimmatini tan olish, bolani qanday bo‘lsa, shunday unga xos bo‘lgan barcha xislat va xususiyatlar bilan so‘zsiz qabul qilish hamda bolani har qanday yoshda ham shaxs sifatida alohida xususiyatli olamda uning huquqlari, xohish-istaklari, ehtiyojlari, qiziqishlarini idrok etish lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik- didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida).: p.f.n. diss. – Toshkent: TDPU. 2006. – 49 b.
3. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
4. Primov Sh.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. nom. (PhD) – Toshkent, 2020. – 114 b.
5. Djurayev R.H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010.